



KELISHIKLAR O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA

O.Sh.Usarova

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Z.I. Abdunazarova

Annotatsiya: Maqola hol kategoriyasiga bag'ishlangan bo'lib, u gapdagi so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydigan va ularning grammatik funksiyalarini ifodalovchi tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Holning o'zbek va ingliz tillarida qanday ifodalanishi va shakllanishi tahlil qilinib, bu farqlar har bir tilning tuzilish xususiyatlariga bog'liqligi ta'kidlangan. Tadqiqot holning gap tuzilishidagi funksional rolga e'tibor qaratadi va ikki til bo'yicha uning realizatsiyasini solishtirmali tarzda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tilidagi kelishiklar, ingliz tilidagi predloglar, o'xshashlik va farqlari.

KIRISH.

O'zbek va ingliz tillarida kelishiklar grammatik tizimning ajralmas qismi bo'lib, ularning shakllanishi va qo'llanishi turli xildir. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi kelishiklarning nazariy asoslari, shakl va vazifalari, o'xshashliklari va farqlari haqida tahlil qilinadi.

O'zbek tilida kelishiklar - o'zbek tili agglutinatativ til bo'lib, unda grammatik ma'nolar, jumladan, kelishiklar affikslar orqali ifodalanadi. O'zbek tilida 6 ta kelishiklar mavjud

1. Bosh kelishik - so'zning mustaqil holdagi shakli.
2. Qaratqich kelishik - "ning" qo'shimchasi, egalik munosabatini bildiradi.
3. Jo'nalish kelishigi - "ga" yo'nalish yoki maqsadni bildiradi.
4. O'rin-payt kelishigi - "da" o'rin yoki paytni bildiradi.
5. Chiqish kelishigi - "dan" o'rin yoki sababni bildiradi.
6. Tushum kelishigi - "ni" to'g'ridan to'g'ri obyektini bildiradi.

Bu qo'shimchalar so'zga qo'shilganda uning gapdagi funksiyasi o'zgaradi.

Ingliz tilidagi kelishiklar tushunchasi an'anaviy grammatik qo'shimchalar bilan emas, balki predloglar (prepositions) va so'z tartibi orqali ifodalanadi. Ingliz tilidagi kelishiklar o'rnini quyidagi shakllar egallagan.

1. Possessive case (egalik kelishigi) apostrof ('s) yordamida ifodalanadi. Example: Ozoda's book.
2. Objective case (obyekt kelishigi) to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita obyektini bildiradi. To'g'ridan to'g'ri obyekt: I saw him. Bilvosita obyekt : I gave her the book

3. Prepositions (predloglar) Ingliz tilidagi kelishik vazifasini bajaruvchi asosiy vostilar.

o'rin : on, in, at

yo'nalish: to, into, towards

sabab: because of, due to...

Shu sababli ingliz tilidagi "kelishik" tushunchasi ko'proq funksional - sintaktik xarakterga ega.

Ingliz tilidagi va o'zbek tilidagi kelishiklarning o'xshashlik va farqlari. O'xshashliklar:

1. So'zlar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash
2. Grammatik vazifa - ikkala til ham kelishik orqali ega, to'ldiruvchi va boshqa gap bo'laklarining grammatik vazifalarini aniqlaydi.

3. Tushunish osonligi. Har ikki tilda kelishik yoki predloglar gap ma'nosini to'liq tushunishga yordam beradi.

Farqli jihatlari.

1. O'zbek tili agglutinatativ til bo'lib, kelishiklar qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Masalan, uydan. Ingliz tilida esa kelishiklar predloglar yoki so'z tartibi orqali ifodalanadi. Example, from the house.
2. So'z tartibi ahamiyati. Ingliz tilida so'z tartibi muhim ahamiyatga ega, chunki u kelishik ma'nosini belgilaydi. O'zbek tilida erkin, ingliz tilida esa odatda qat'iy, SVOMPT kabi



O'zbek tilida qo'shimchalar kelishikni belgilaydi

3. Predloglar. Ingliz tilida predloglar ko'p va murakkabroq bo'lib, ular turli vazifalarni bajaradi va turli ma'nolarni ifodalaydi. Example, on the table (stolda) at the table (stol yonida). O'zbek tilida esa bunday murakkablik yo'q, har bir kelishikning ma'nosi aniq.

4. Qaratqich kelishigi. O'zbek tilida qaratqich kelishigi qo'shimcha bilan ifodalanadi. Kitobning muqovasi kabi

Ingliz tilida esa egalikni ifodalash uchun apostrof yoki predlog ishlatiladi.

The book's cover or The cover of the book

Xulosa

O'zbek tili kelishiklarni aniq grammatik qo'shimchalar orqali ifodalaydi. Ingliz tili esa grammatik tizimida kelishik ma'nosi odatda predloglar yordamida bildiriladi. Ikkala tilning kelishiklari o'ziga xos qoidalarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlash va grammatik ma'no berish hisoblanadi. O'zbek tilida kelishiklar affiksalar orqali aniq va qat'iy shakllangan bo'lsa, ingliz tilida ular sintaktik vositalar, predloglar va so'z tartibi orqali ifodalanadi. Shuning uchun bu ikki tilni qiyosiy o'rganish tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov, A. (2019). O'zbek tilining grammatikasi: Morfologiya va sintaksis. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

2. Nurmonov, A. (2020). O'zbek tili nazariy grammatikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.

4. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.

??, Tukhtasinov, I., & Otabek, Y. (2022). Teaching a Foreign Language According to Age Groups. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(2), 238-246.

??, Yusupov, O., Abdazimov, A., Muradov, U., Kuchkeldiyeva, U., & Mirkasimova, M. (2021). Improving writing skills using communicative competence. International Journal of World Languages, 1(2).

??, Юсупов, О. (2022). Хорижий тилларни ўқитишда таржиманинг аҳамияти. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 9-11.

??, Yusupov, O. Y. (2020). ETYMOLOGICAL AND PRO-ETYMOLOGICAL DOUBLETS IN ENGLISH. Theoretical & Applied Science, (2), 417-420.

??, Yusupov, O. (2019). Functional-Semantic Features Of Lexical Doublets In English. Philology Matters, 3, 98-104.

¹ Yusupov, O. (2021). The russification legacy of historical monuments of Uzbekistan. Linguistics and Culture Review.

¹ Yusupov, O. (2020). Lexical doublets in English and Uzbek linguistics. Journal of Critical Reviews, 7(5), 466-468.

¹ Yusupov, O. (2016). Testing as an effective tool of an English language classroom. Рецензенты: Ирина Валентиновна Арябкина—доктор педагогических наук, 233.

13. Юсупов, О. Я. (2020). Ўзбек тилига араб ва форс тилларидан ўзлашган лексик дублетлар таҳлили. Хорижий филология. No2.